SURXONDARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

# SURXONDARYO VILOYATI xizmatlar sohasining rivojlanishi

2021- yil
yanvar-mart oylarida



*2021- yil yanvar-mart* *Dastlabki ma’lumotlar*

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi, milliy daromadlarning oshishini ta’minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi, xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste’mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejalishiga olib keladi hamda bo‘sh vaqt samaradorligini oshiradi.

**Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi**
**2245,3 mlrd. so‘m**

**Xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar ulushi**
**61,3 %**

**Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi**
**835,6 ming so‘m**

**Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi**
**66,1 %**

**Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o‘sish sur’ati**
**108,5 %**

**Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o‘sish sur’ati**
**110,6 %**



Info

**Xizmatlar sohasi** bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko‘rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o‘z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2021- yil yanvar-mart oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2 245,3** mlrd. so‘mga yetib, uning nominal hajmi **377,0 mlrd**. so‘mga oshdi. Taqqoslama ekvivalentda o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati **110,6 %** ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko‘rsatkichlari

*(2021- yil yanvar-mart oylarida)*

**Xizmatlar hajmi**: 2 245,3 mlrd. so‘m

**O‘sish sur’ati**: 110,6 %

**Hajmning o‘sishi**: 377,0 mlrd. so‘mga

**2021- yil yanvar-mart** **Dastlabki ma’lumotlar**

| Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko‘rsatkichlari *(2021- yil yanvar –mart oylarida)* | Hajmi, mlrd. so‘m | 2020- yilga nisbatan o‘sish sur’ati, % da |
|---|---|---|
| **Xizmatlar - jami** | **2245,3** | **110,6** |
| *shu jumladan:* | | |
| Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 107,7 | 116,1 |
| Moliyaviy xizmatlar | 442,7 | 130,0 |
| Transport xizmatlari | 345,2 | 100,9 |
| *shu jumladan:* avtotransport xizmatlari | 328,6 | 101,9 |
| Yashash va ovqatlanish xizmatlari | 71,0 | 102,6 |
| Savdo xizmatlari | 827,4 | 100,2 |
| Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar | 55,5 | 102,0 |
| Ta’lim sohasidagi xizmatlar | 100,5 | 177,2 |
| Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar | 28,0 | 105,0 |
| Ijara xizmatlari | 83,2 | 166,8 |
| Kompyuter va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar | 57,5 | 100,4 |
| Shaxsiy xizmatlar | 60,7 | 101,0 |
| Me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 21,5 | 101,6 |
| Boshqa xizmatlar | 44,4 | 104,9 |

*2021- yil yanvar-mart* *Dastlabki ma’lumotlar*

# Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha xizmatlarning tarkibi

## Nisbatan yuqori ko‘rsatkich

| Xizmat turi | Ulush |
|---|---|
| Savdo xizmatlari | 36,8 % |
| Moliyaviy xizmatlar | 19,7 % |
| Transport xizmatlari | 15,4 % |
| Aloqa va axborotlash - tirish xizmatlari | 4,8 % |
| Ta’lim sohasidagi xizmatlar | 4,5 % |
| Ijara xizmatlari | 3,7 % |
| Yashash va ovqatlanish xizmatlari | 3,2 % |

## Nisbatan past ko‘rsatkich

| Ulush | Xizmat turi |
|---|---|
| 2,7 % | Shaxsiy xizmatlar |
| 2,6 % | Kompyuterlarni ta’mirlash xizmatlari |
| 2,5 % | Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar |
| 2,0 % | Boshqa xizmatlar |
| 1,2 % | Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar |
| 0,9 % | Me’morchilik sohasidagi xizmatlar |

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2021- yil yanvar-mart oylarida ularning ulushi **36,8** % ni tashkil etdi.

Me'morchilik sohasidagi xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi atigi **0,9** % ga yetgan.

***Taqqoslash uchun:*** 2020- yil yanvar-mart oylarida savdo xizmatlari umumiy hajmda **40,0** % ni tashkil etdi. 2020- yilning shu davrida kompyuterlar va uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash bo'yicha xizmatlarning ulushi ham eng kichik bo'lgan - **1,1** %.

2021- yil yanvar-mart oylarida yuqori o'sish ta'lim sohasidagi xizmatlar (**77,2** %), ijara sohasidagi xizmatlar (**66,8** %), moliyaviy xizmatlarida (**30,0** %) qayd etildi.

***Taqqoslash uchun:*** 2020- yil yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi (126,5 %). Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarda biroz o'sish kuzatilgan (91,2 %).

*2021- yil yanvar-mart* *Dastlabki ma'lumotlar*

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi, % da



***2021- yil yanvar-mart*** ***Dastlabki ma’lumotlar***

Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo‘lovchilarni tashish bo‘yicha xizmatlarga to‘g‘ri keldi.

Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko‘rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli eng ko‘p talabga ega hisoblanadi.

## Avtomobil transporti xizmatlarining tashish turlari bo‘yicha tarkibi, % da




2021- yil yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yo‘lovchi tashish xizmatlarining ulushi **61,1** % ga yetdi.

***Taqqoslash uchun:*** 2020- yil yanvar-mart oylarida yo‘lovchi tashish xizmatlarining ulushi **71,3** % ni tashkil etgan.

*2021- yil yanvar - mart* *Dastlabki ma’lumotlar*

**Savdo** bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste’mol sohasiga o‘tishini ta’minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma’lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste’molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo‘linadi.

2021- yil yanvar-mart oylarida, ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **36,8** % ni tashkil etdi, bu esa **827,4** mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.

***Taqqoslash uchun:*** 2020- yil yanvar-mart oylarida ularning hajmi **747,2** mlrd. so‘mga yoki umumiy hajmining **40,0** % iga to‘g‘ri kelgan.

## Savdo xizmatlari

**2020- y. yanvar-*mart***

**Xizmatlar hajmi**
**747,2 mlrd. so‘m**

**O‘sish sur’ati**
**105,0 %**

**Ulushi**
**40,0 %**




**2021- y. yanvar-mart**

**Xizmatlar hajmi**
**827,4 mlrd. so‘m**

**O‘sish sur’ati**
**100,2 %**

**Ulushi**
**36,8 %**

*2021- yil yanvar-mart* *Dastlabki ma’lumotlar*

2021- yil yanvar-mart oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to‘rtdan uch qismini, aniqrog‘i **84,8** % ini tashkil etdi.

## Savdo xizmatlari tarkibi

*(2021- yil yanvar-mart oyida)*

**Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta’mirlash xizmatlarini qo‘shgan holda**






**Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo‘yicha xizmatlar**



**Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)**



***Taqqoslash uchun:*** 2020- yil yanvar-mart oylarida chakana savdo ulushi **83,1** % ga yetdi.

*2021- yil yanvar -mart* *Dastlabki ma'lumotlar*

**Moliyaviy xizmatlar hajmi** moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

## Moliyaviy xizmatlar

*(2021- yil yanvar-mart oyida)*



Moliyaviy xizmatlar hajmi **442,7** mlrd. so'mni tashkil etdi.

***Taqqoslash uchun:*** 2020- yil yanvar-mart oylarida ularning hajmi **327,6** mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2021- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **19,7** % ni tashkil etdi.

***Taqqoslash uchun:*** 2020- yil yanvar-mart oylarida ularning ulushi **17,5** % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini **115,1** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

Moliyaviy xizmatlarning o'sishi **30,0** % ni tashkil etdi.

***Taqqoslash uchun:*** 2020- yil yanvar-mart oyida ularning o'sish sur'ati **126,5** % ga yetgan.

***2021- yil yanvar-mart*** ***Dastlabki ma’lumotlar***

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug‘urta va nafaqa ta’minoti bo‘yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **94,8** % ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-mart oyi yakuniga ko‘ra sug‘urta xizmatlarining ulushi **2,8** % oralig‘ida qayd etildi.

## Moliyaviy xizmatlar tarkibi

*(2021- yil yanvar-mart oylarida)*




***Taqqoslash uchun:*** 2020- yil yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **96,1** % ini sug‘urta va nafaqa ta’minoti bo‘yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan. Sug‘urta xizmatlarining ulushi **3,0 %** ga to‘g‘ri kelgan.

*2021- yil yanvar -mart* *Dastlabki ma’lumotlar*

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta’sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma’lumotlarni to‘plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

*(2021- yil yanvar-mart oyida)*

| 2020- y. yanvar-mart | | 2021- y. yanvar-mart |
|---|---|---|
| 91,6 мlrd. so‘m | Xizmatlar hajmi | 107,7 мlrd. so‘m |
| 113,0 % | O‘sish sur’ati | 116,1 % |
| 4,9 % | Jami hajmdagi ulushi | 4,8 % |

**Hajmning o‘sishi**

**16,1 mlrd. so‘mga**

*2021- yil yanvar -mart* *Dastlabki ma’lumotlar*

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog‘i, yo‘ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, **95,7** % ni tashkil etdi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

**2020- y. yanvar-mart** **2021- y. yanvar-mart**




**Telekommunikatsiya xizmatlari**

**Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari**

**Kompyuter dasturlashtirish xizmatlari**

**Noshirlik xizmatlari**

***Taqqoslash uchun:*** 2020- yil yanvar-mart oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **95,7** % ga yetgan.

*2021- yil yanvar -mart* *Dastlabki ma'lumotlar*

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi.

## Ta'lim sohasidagi xizmatlar

| 2020- y. yanvar-mart | | 2021- y. yanvar-mart |
|---|---|---|
| 54,7 mlrd. so'm | Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi | 100,5 mlrd. so'm |
| 110,9 % | O'sish sur'atlari, % da | 177,2 % |



2021- yil yanvar-mart oylarida ta'lim soha-sidagi xizmatlar hajmi **100,5** mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi **4,5** % ni tashkil etdi. 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **177,2** % ni tashkil etdi.

***Taqqoslash uchun:*** 2020- yilning yanvar-mart oylarida xizmatlar hajmi **54,7** mlrd. so'mga teng bo'lgan. 2020- yilga nisbatan o'sish **45,8** % darajasida qayd etilgan.

*2021- yil yanvar -mart* *Dastlabki ma’lumotlar*

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta’minlash bo‘yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo‘yicha qo‘yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o‘z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo‘yicha xizmatlar** hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta’minlash bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o‘z ichiga oladi.

## Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar





| | 2020- y. yanvar-mart | 2021- y. yanvar-mart |
|---|---|---|
| Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘m | 59,4 | 71,0 |
| O‘sish sur’ati, % da | 102,5 | 102,6 |

2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar hajmi **11,6** mlrd. so‘mga ortdi.

*2021- yil yanvar-mart* *Dastlabki ma'lumotlar*

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

**2021- y. yanvar-mart**

**92,2 %** **7,8 %**



**7,4 %** **92,6 %**

**2020- y. yanvar-mart**

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar**

**Yashash bo'yicha xizmatlar**

2021- yil yanvar-mart oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **92,2** % bilan ustunlik qildi.

*Taqqoslash uchun:* 2020- yilda ularning ulushi **92,6** % ni tashkil etgan.

*2021- yil yanvar-mart* *Dastlabki ma'lumotlar*

**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya epidemiologiyalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

| 2020- y. yanvar-mart | | 2021- y. yanvar-mart |
|---|---|---|
| 25,2 mlrd. so'm | Xizmatlar hajmi | 28,0 mlrd. so'm |
| 121,9 % | O'sish sur'ati | 105,0 % |
| 1,3 % | Xizmatlarning jami hajmidagi ulushi | 1,2 % |





*2021- yil yanvar -mart* *Dastlabki ma'lumotlar*

Zamonaviy Surxondaryo ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

## Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da

*(2021- yil yanvar-mart oylarida)*




2021- yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidadagi eng katta ulush Termiz shahriga tegishli - **27,9** % (2020- yilda **26,7** %). Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Bandixon tumanida **2,5** % (2020- yilda **2,6** %) qayd etildi.

***2021- yil yanvar -mart*** ***Dastlabki ma'lumotlar***

| **Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari** *(2021- yil yanvar-mart oylarida* | **Hajmi, mlrd. so'm** | **O'sish sur'ati, % da** | |
|---|---|---|---|
| | | **2021- y.** | **2020- y.** |
| **Surxondaryo viloyati *** | **2 245,3** | **110,6** | **108,2** |
| Termiz sh. | **624,7** | **115,1** | **110,4** |
| tumanlar: | | | |
| Oltinsoy | **88,9** | **107,2** | **106,1** |
| Angor | **99,7** | **106,8** | **104,3** |
| Bandixon | **55,2** | **105,3** | **103,4** |
| Boysun | **65,8** | **106,6** | **106,0** |
| Muzrabot | **103,3** | **109,5** | **104,2** |
| Denov | **277,9** | **113,2** | **109,2** |
| Jarqo'rg'on | **134,8** | **110,1** | **106,0** |
| Qumqo'rg'on | **136,1** | **109,1** | **108,0** |
| Qiziriq | **92,6** | **108,5** | **106,3** |
| Sariosiyo | **133,5** | **108,1** | **105,3** |
| Termiz | **98,9** | **109,0** | **105,8** |
| Uzun | **96,4** | **106,1** | **105,1** |
| Sherobod | **124,5** | **108,1** | **105,9** |
| Sho'rchi | **113,0** | **107,5** | **105,4** |

*) *hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda.*

*2021- yil yanvar -mart* *Dastlabki ma'lumotlar*

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

## Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

**Xizmatlar hajmi**

**835,6 ming so'm**

**Hajmning o'sishi**

**126,5 ming so'mga**

**O'sish sur'ati**

**108,5 %**



2021- yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **835,6** ming so'mga yetdi. 2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan o'sish sur'ati **108,5** % ni tashkil etdi.

***Taqqoslash uchun:*** 2020- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **709,1** ming so'mni tashkil etgan.

*2021- yil yanvar -mart* *Dastlabki ma’lumotlar*

**Xizmatlar sohasi** xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommuni-katsiyalar, sug‘urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlari, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

## 2021- yilning 1- aprel holatiga ko‘ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma‘lumot

*(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*



**Xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni** — **16 172 birlik**

**2020- yilning mos davriga nisbatan ularning sonini o‘sishi** — **2630 birlikga**



**2020- yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’atlari** — **119,4 %**

**Ularning umumiy sonidagi ulushi** — **61,3 %**



*2021- yil yanvar-mart* *Dastlabki ma’lumotlar*

2021- yilning 1-aprel holatiga ko‘ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **61,3** %, sanoat **15,7** %, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi **13,1** % ga yetdi. Qurilish sohasi **9,9** % ga to‘g‘ri keladi.

## 2021- yilning 1- aprel holatiga ko‘ra, faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi

*(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*




***Taqqoslash uchun:*** 2020- yilning 1- aprel holatiga ko‘ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **66,6** %, sanoat **13,9** %, qurilish **11,6** %, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi **7,9** % ni tashkil etgan.

*2021- yil yanvar-mart* *Dastlabki ma'lumotlar*

Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylandi, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

## Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da



66,1 %

2021- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **66,1** % ni tashkil etdi.

## 2021- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % da

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

**1- aprel holatiga**




2021- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissasi **55,3** % ga to'g'ri keldi.

**Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi.**
**Тел: (76) 225-65-83**